
IJTIMOYIY TARMOQLARDA “FARG’ONA VILOYATIDA ZO’RAVONLIKLAR AVJIDAMI?” SARLAVHASI OSTIDA TARQALGAN HABAR YUZASIDAN QUYIDAGILAR MA’LUM QILINADI.

Xabarga ko’ra, Farg’ona shahar hokimligi va Farg’ona shahar prokuraturasi mas’ullari tomonidan, tadbirkor A.Tning qonuniy onlayn auksion orqali yutib olgan va qurgan yer hamda bino-inshootlarini, hech bir sudning qarori yoki ijro varaqasisiz, maxsus texnikalar yordamida buzib tashlamoqda deyilgan.

Lekin, tadbirkor A.T tomonidan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qurilish sohasiga oid yagona ma’muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to’g’risida"gi 200-sonli qarori talablari buzilgan. Qarorga ko’ra qurilish uchun loyiha hujjatlari tuman (shahar) qurilish bo’limlari bilan kelishiladi.

Onlayn auksion orqali esa ma’lum bir yer maydoni yutiladi. Yutdim deb loyiha hujjatlarini kelishmay turib qurib yuboraverish qonunni chetlab o’tishdan boshqa narsa emas

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2024-10-02 12:47:42